

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSC.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

YADRO FIZIKASI INSTITUTI

QUDRATOV XIKMATULLA NORBOYEVICH

**QO‘SHIMCHA Ca KIRISHMASI KIRITILGAN VA RADIATSIYA BILAN
HOSIL QILINGAN RANGLANISH MARKAZLARI BO‘LGAN LYUTETSIY
ORTASILIKATI SSINTILLYATORIDAGI SERIYNING
REKOMBINATSIYAVIY LYUMINESSENSIYASI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико-математическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on physical and mathematical sciences**

Qudratov Xikmatulla Norboyevich

Qo‘shimcha Ca kirishmasi kiritilgan va radiatsiya bilan hosil qilingan ranglanish markazilari bo‘lgan lyutetsiy ortasilikati ssintillyatoridagi seriyning rekombinatsiyaviy lyuminessensiyasi 3

Кудратов Хикматулла Норбоевич

Рекомбинационное свечение церия в сцинтилляторных монокристаллах ортосиликата лютеция с дополнительной примесью Ca и радиационно-наведенными центрами окраски..... 24

Kudratov Khikmatulla Norboevich

Recombination luminescence of cerium in lutetium orthosilicate scintillation single crystals with additional calcium doping and radiation-induced color centers..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of publications..... 53

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSC.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

YADRO FIZIKASI INSTITUTI

QUDRATOV XIKMATULLA NORBOYEVICH

**QO‘SHIMCHA Ca KIRISHMASI KIRITILGAN VA RADIATSIYA BILAN
HOSIL QILINGAN RANGLANISH MARKAZLARI BO‘LGAN LYUTETSIY
ORTASILIKATI SSINTILLYATORIDAGI SERIYNING
REKOMBINATSIYAVIY LYUMINESSENSIYASI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.2. PhD/FM1110 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Yadro fizikasi institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.inp.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Islamov Axatkul

fizika-matematika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Mussayeva Malika Anvarovna

fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Atabayev Baxtiyor Gafurovich

fizika-matematika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. Tel.: (+99871) 289-31-41; faks: (+99871) 289-36-65; e-mail: info@inp.uz).

Dissertatsiya bilan Yadro fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. Tel.: (+99871) 289-31-19.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.Yu.Tashmetov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi f.-m.f.d., professor

O.R.Tojiboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.-m.f. PhD, katta ilmiy xodim

S.B.Igamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. So‘nggi yigirma yil ichida yadroviy tibbiy diagnostikaning jadal rivojlanishi, jumladan, pozitron emissiya tomografiyasi (PET), yagona fotonli emissiya kompyuter tomografiyasi (YaFEKT) va kompyuter tomografiyasining jadal rivojlanishi, hamda yuqori energiya fizikasida yangi zarralarni aniqlash uchun og‘ir ionli ssintillatsion materiallariga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Bu borada, seriy ionlari bilan aktivlashtirilgan lutetsiy oksiorosilikat $\text{Lu}_2\text{SiO}_5:\text{Ce}$ (LSO:Ce) alohida qiziqish uyg‘otadi, u istiqbolli ssintillyatsion material sifatida ko‘rilmoqda. Ce^{3+} aktivatori tufayli qisqa so‘nish vaqti (40 ns) va yuqori yorug‘lik chiqishi (26000 foton/MeV) tufayli LSO:Ce $\text{Bi}_4\text{Ge}_3\text{O}_{12}$ (BGO) va PbWO_4 (PWO) kabi aktivlashtirilmagan ssintillyatorlarga nisbatan afzalliklarga ega, garchi uning zichligi nisbatan kichik ($7,4 \text{ g/sm}^3$) bo‘lib, bu uning kamchiligi hisoblansa ham. Bundan tashqari, 410 nm to‘lqin uzunligidagi nurlanish bo‘yicha LSO:Ce BGO va PWO dan kam emas, bu uni fotoelektrik o‘zgartirgichlarda qo‘llash uchun mos qiladi.

So‘nggi yillarda tadqiqotchilar LSO:Ce kristalining optik xususiyatlarini o‘rganishga katta e‘tibor qaratmoqdalar, uning sintillovchi potentsialini ochib berishga va allaqachon aniq bo‘lgan kamchilikni - tibbiy diagnostikada vizualizatsiyani buzadigan qoldiq lyuminessensiyani bartaraf etishga harakat qilmoqdalar. Uni yuqori energiyali ionlashtiruvchi va yadroviy nurlanish sharoitida qo‘llash istiqbollari radiatsiyaviy-optik shaffoflikni pasaytiradigan va lyuminessensiyani yomonlashtiradigan omillarni aniqlash va bartaraf etish zaruratini keltirib chiqaradi. Bugungi kunga qadar bunday tadqiqotlar yetarli darajada o‘tkazilmagan.

XX asrning 70-yillari o‘rtalarida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida keng zonali kislorodli kristallarda radiatsiya bilan stimullashtirilgan hodisalarni o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Ushbu tadqiqotlar lazer va optik materiallarning radiatsiyaviy-optik xususiyatlarini chuqur tushunish orqali ularning sifatini yaxshilashga qaratilgan. Respublikamizda jahon darajasida ionlashtiruvchi va yadroviy nurlanishlarni aniqlay oladigan detektorlar uchun mo‘ljallangan lyuminessent materiallarni yaratishning fundamental asoslari alohida e‘tibor bilan ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimiz ilm-fan taraqqiyoti va ularni amaliyotda qo‘llashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu fundamental tadqiqot va ishlanmalarning yo‘nalishlari 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 1-martdagi PF-4512-sonli “Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 21-noyabrdagi PQ-4526-sonli "Yadro fizikasi instituti ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. "Energetika, energiya tejamkorligi va muqobil energiya manbalari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yadroviy tibbiyotda tashxislash uchun LSO:Ce ortosilikat monokristallarining sintillyatsion va optik xususiyatlari dunyoning ko'plab olimlari tomonidan o'rganilgan, jumladan, amerikalik (C.L. Melcher, K. Yang, D.W. Cooke), yaponiyalik (H. Suzuki, M. Kitaura, M. Kobayashi), niderlandiyalik (W. Drozdowski, A. Wojtowicz), xitoylik (Y. Shen, X. Feng), fransiyalik (L. Pidot) olimlar tomonidan; yuqori energiya fizikasi uchun esa shveysariyalik (E. Auffray, P. Lecoq), rossiyalik (Y.D. Zavartsev S.A. Koutovoi), belorussiyalik (M.V. Korjik, A.A. Fedorov), ukrainalik (Yu.V. Zorenko, V.I. Gorbenko), chexiyalik (V. Babin, V.V. Laguta) olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

O'zbekistonlik olimlar (Sh.A. Vohidov, I. Nuritdinov va Kim Gen Chan hamda boshqa mutaxassislar) $Y_2SiO_5:(Nd, Eu)$, $Y_2Si_2O_7:(Nd, Eu)$ monokristallarda erkin va avtolokallashgan eksitonlarning lyuminessensiyasi va ularning aktivator markazlarining lyuminessensiyasi bilan raqobatini, $Gd_2SiO_5:Ce$ da esa gamma- va reaktor nurlari ta'sirida optik xususiyatlarning radiatsiyaviy barqarorligini o'rganishgan.

Bugungi kungacha $Lu_2SiO_5:Ce$ yangi ssintillyator kristallari olingan bo'lib, ularda radiatsiya ta'sirida hosil bo'lgan ranglanish va lyuminessensiya markazlarining to'planish kinetikasi, ularning relaksatsiyasi, hamda termik rangsizlanishi yetarlicha o'rganilmagan. Ca^{2+} ionlari bilan qo'shimcha legirlash orqali ssintillyatsion xususiyatlarini yaxshilashi aniqlangan, biroq $Lu_2SiO_5:Ce, Ca$ kristalida radiatsiyaning optik shaffoflikka va aktivator lyuminessensiya chiqishiga ta'siri deyarli tadqiq qilinmagan. Shu sababli, ionlashtiruvchi nurlanish ta'sirida aktivator lyuminessensiya chiqishiga hosil qilingan ranglanish markazlari va Ca^{2+} ioni bilan qo'shimcha legirlashning ta'sir mexanizmlari hali ham aniq emas.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-noyabrdagi PQ-4526-sonli qarori asosida 2020-2024-yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari dasturi yuzasidan "Atom energetikasi sohasidagi tadqiqotlar, radioizotoplar olish texnologiyalarini ishlab chiqish va yadro texnologiyalarini joriy etish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi lyutetsiy oksidortosilikati ssintillyator monokristallarida yutilgan energiyani seriy aktivator ionlariga o'tkazishda kalsiy ishtirok etadigan va ishtirok etmaydigan radiatsiya bilan generatsiya qilingan ranglanish markazlarining ta'siri mexanizmini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

LSO:Ce monokristalida gamma nurlarining 50 MGr (ssintillyatorning yuqori energiyalar fizikasi uchun resurs chegarasidan yuqori) dozasi gacha nurlantirgandagi ranglanish markazlarining to'planish kinetikasini tadqiq qilish;

LSO:Ce monokristallarini gamma nurlari bilan 200 Gr gacha nurlantirish va 300 K haroratida 10 soatgacha bo'lgan turli vaqt oralig'ida saqlagandan so'ng termostimullashtirilgan lyuminessensiya usuli orqali (300÷600 K) ranglanish markazlarining relaksatsiya kinetikasini o'rganish: ranglanish markazlari va qamrash markazlari orasidagi bog'liqlikni topish;

LSO:Ce monokristallida gamma kvantlari bilan 70 Gr dan 50 MGr gacha dozalarida nurlantirilgandan so'ng kiritmaning gamma nurlari bilan stimullashtirilgan rekombinatsion lyuminessensiyasi kinetikasini tadqiq qilish; radiatsiyaviq turg'unlikning dozaviy chegarasi hamda sintillyator degradatsiyasining nurlanish orqali vujudga keltirilgan ranglanish markazlari bilan bog'liqligini topish;

yuqori energiyalar fizikasi uchun tez neytronlarning 10^{15} dan 10^{17} cm^{-2} gacha flyuenslari bilan reaktorda nurlantirishda hosil bo'ladigan ranglanish markazlarining 310 K da (gamma-kanaldagi harorat) ^{60}Co manbasining gamma nurlari bilan stimullashtirilgan aktivator lyuminessensiyasiga ta'sirini aniqlash;

gamma kvantlar dozasi va Ca^{2+} ionlari bilan qo'shimcha legirlashning $\text{Lu}_2\text{SiO}_5:\text{Ce}$ monokristallarining optikaviy shaffofligi va aktivator lyuminessensiyasining chiqishiga ta'sirini tadqiq qilish;

yadro tibbiyoti va yuqori energiyalar fizikasida qo'llash uchun $\text{Lu}_2\text{SiO}_5:\text{Ce}$ monokristallining optikaviy va lyuminessensiya xususiyatlarini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida seriy ionlari bilan aktivlashtirilgan va qo'shimcha turli konsentratsiyali kalsiy ionlari bilan legirlangan lyutetsiy ortosilikatning sintillyator monokristallari $\text{Lu}_2\text{SiO}_5:\text{Ce}$ olingan.

Tadqiqotning predmeti radiatsiya bilan stimullashtirilgan elektron - kovak juftlari va juft nuqsonlari generatsiyasi, zaryad tashuvchilarning migratsiyasi va lokalizatsiyasi jarayonlari, ularning sintillyatorning asosiy xarakteristikalari sifatida Ce^{3+} ionlarining aktivator lyuminessensiya chiqishiga ta'siri hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari: ^{60}Co ($E_\gamma = 1,17$ va $1,33$ MeV) manbaining gamma-kvantlari hamda VVR-SM reaktorida tez neytronlar va γ -kvantlarning aralash oqimi bilan kristallarni nurlantirish; spektroskopik usullar – optik yutilish, gamma-lyuminessensiya, fotolyuminessensiya spektrlari va (77÷620) K harorat oralig'ida termolyuminessensiya.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

$5 \cdot 10^4$ Gr dozalargacha gamma-nurlantirishdan so'ng kristallni o'stirishda vujudga kelgan nuqsonlari bo'lgan va elektron tutqichlar vazifasini bajaruvchi neytral $\text{Lu}1-\text{V}_{\text{O}5}$ - markazlarining konsentratsiyasi elektronlarni qamrab olish tufayli kamayishi, hosil bo'lgan zaryadlangan markazlar 300 K haroratda noturg'un ekanligi aniqlangan;

LSO:Ce ssintillyatorida xona haroratida vujudga keladigan qoldiq lyuminessensiya mexanizmi zaryadlangan $\text{Lu}1-\text{V}_{\text{O}5}$ - markazlardan elektronlarning

ketishi va ularning Ce^{4+} kavak markazlarida rekombinatsiyalanishi bilan bog'liq ekanligi aniqlangan;

$5 \cdot 10^4$ Gr dan yuqori dozalar bilan nurlantirilganda LSO:Ce kristalli strukturasi $Si-V_{O4}$ (213 nm), $Lu1-F-Si$ (238 nm), Ce^{3+}/F^+ (295 nm) xususiy nuqsonlar va Ce^{3+}/Ce^{4+} (263 nm) kirishma nuqsonlari generatsiyasidan tashqari, kristall uchun xos bo'lgan sariq rangni keltirib chiqaruvchi yangi $Ce^{4+}+V_O$ (422 nm) nuqson markazlari hosil bo'lishi ko'rsatilgan;

LSO:Ce ssintillyatorini $5 \cdot 10^4$ Gr dan yuqori dozalarda gamma-nurlanishi va tez neytronlarning 10^{15} cm^{-2} dan yuqori flyuyenslari bilan nurlantirilganda hosil bo'ladigan xususiy va kirishma nuqsonlar rekombinatsion jarayonlarda Ce^{4+} lyuminessensiya markazlari bilan elektron qamrash jarayonida raqobatlashishi va Ce^{3+} aktivator lyuminessensiyasini qisman qayta yutishi (reabsorbsiya) aniqlangan;

0.1 at. % Ce va 0.1 at.% Ca konsentratsiyali LSO:Ce, Ca kristallarini o'stirishda kompleks cho'zinchoq $\{Ca_{Lu}+V_O + \dots + Ce^{4+}_{Lu}\}$ nuqsonlar hosil bo'lishi aniqlandi, ular 310 K haroratda 10^7 Gr gacha bo'lgan gamma-nurlanish ta'sirida kristallarning binafsha rangini keltirib chiqaradi va Ce^{4+} aktivator lyuminessensiyaning rekombinatsiya jarayonlarini barqarorlashtiradi, qayta yutilishni bartaraf etadi va sintillyatsiya sohasida optikaviy shaffoflikni ta'minlaydi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sintillyatorning 300 K haroratda (ishlatish oralig'i 10 soatdan kam bo'lmagan) ishlashining vaqtinchalik rejimi taklif etilgan bo'lib, u sintillyatorning qoldiq lyuminessensiya tufayli vizualizatsiyadagi shumlarni bartaraf etadi;

LSO:Ce kristallari asosidagi sintillyatorlarning $5 \cdot 10^4$ Gr dozada gamma nurlanish ta'siriga, tez neytronlar uchun esa 10^{15} cm^{-2} flyuyensgacha barqarorligining yuqori chegarasi aniqlangan;

(0.3÷0.4) at% konsentratsiyali Ca^{2+} ionlari bilan qo'shimcha legirlangan LSO:Ce kristallari gamma-nurlanish sintillyatsion detektori sifatida tavsiya etilishi mumkin. Biroq, yorug'lik chiqishini va ssintillyatsiya sohasida optik shaffoflikni barqarorlashtirish uchun ishchi harorati 325 K dan oshmasligi kerak, bu haroratdan yuqori bo'lganda yorug'lik chiqishi kamayadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, LSO:Ce monokristallarida va qo'shimcha Ca ionlari bilan legirlangan monokristallarda nurlanishdan keying qoldiq nurlanishning paydo bo'lishi, radiatsion hosil qilingan xususiy va kirishmali nuqsonli markazlarning sintillyatsiya chiqishining barqarorlashuvi va ularning rekombinatsion aktivatorli lyuminesensiyasiga ta'sirining fizik mexanizmlari aniqlangan, bu esa yadro nurlanishlarining legirlangan sintillyatsion materiallar bilan o'zaro ta'siri haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati 10^7 Gr gacha bo'lgan gamma-kvantlar va 10^{15} cm^{-2} tez neytronlar flyuyensi bilan nurlantirilganda LSO:Ce,Ca (0,3÷0,4) at% ssintillyatsion kristallarining radiatsiyaga chidamliligining chegaraviy dozasi o'rnatish bilan izohlanadi, bu esa yadro tibbiyotida pozitron-emission tomografiya (PET) uchun xos bo'lgan sharoitlarda, shuningdek, Katta Adron Kollayderi (HL-LHC) eksperimental detektorlarida LSO:Ce kristallarining barqaror ishlashini ta'minlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi bir-birini to'ldiruvchi - absorpsion, lyuminessent, termo- va foto-rangsizlantirish usullari majmuasidan foydalanilganligi, o'lchashlarning yuqori statistik ishonchliligi va yaxshi takrorlanuvchanligi; ionlashtiruvchi nurlanishning modda bilan o'zaro ta'siri haqidagi umumiy fizik tasavvurlarga mos keladigan natijalar va xulosalarning mantiqiyliigi va ziddiyatsizligi; shuningdek, natijalarning ma'lum fizik qonuniyatlar va nazariy modellar bilan taqqoslanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Qo'shimcha Ca kirishmasi kiritilgan va radiatsiya bilan hosil qilingan ranglanish markazlari bo'lgan lyutetsiy ortasilikati ssintillyatoridagi seriyning rekombinatsiyaviy lyuminessensiyasini o'rganish bo'yicha olingan natijalar asosida:

$5 \cdot 10^4$ Gr dan yuqori gamma-nurlanish dozalarida kristallarning xarakterli sariq rangi ko'rinishida namoyon bo'luvchi yangi $Ce^{4+}V_O$ nuqson markazlarini generatsiyalash; gamma-nurlanish ta'sirida kristallarning binafsha rangini keltirib chiqaruvchi va Ce^{4+} aktivator nurlanishining rekombinatsion jarayonlarini barqarorlashtiruvchi, sintillyatsiya sohasida optik shaffoflikni ta'minlovchi murakkab cho'zilgan nuqsonlarni shakllantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida: LSO:Ce sintillyatorida nurlanishdan keyingi nurlanishning paydo bo'lish mexanizmi "Biotibbiyot muhandisligi" va "Tibbiy biologiya" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari doirasida o'quv jarayonida qo'llanilgan ("Tibbiy elektronika" darsligi, S.X. Umarov, Buxoro: Durdon, 2024.), (Buxoro davlat tibbiyot institutining 21.02.2025-yildagi 230-son xati). Olingan natijalardan foydalanish talabalarning optik kristallarning xususiyatlarini hisobga olgan holda gamma-kvantlar ta'sirida ishlaydigan pozitron emission tomografiya va yagona fotonli emission kompyuter tomografiyasi tizimlari uchun ssintillyatsion detektorlarni tanlash motivatsiyasi haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 9 ta ilmiy ishlar chop etilgan, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan xorijiy ilmiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 125 betdan iborat.

DISSERTASINING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ortosilikat lyutetsiyning strukturaviy, fizik, sintillyatsion va radiatsion-optik xossalari**" deb nomlangan I bobida strukturaviy, fizik va

sintillyatsion xossalari bo'yicha adabiyotlar tahlili o'tkazilgan. Lyutetsiy ortosilikat (LSO:Ce) monokristallari bilan boshqa silikatlar va lyutetsiy-alyuminiy granat monokristallari o'rtasidagi ssintillyatsion tavsiflarning qiyosiy tahlili o'tkazilgan. Bundan tashqari, lyutetsiy ortosilikat monokristallarining optik xususiyatlariga turli xil nurlanishlarning ta'siri, shuningdek, uning ssintillyatsion va optik xususiyatlariga Ca^{2+} ionlari bilan qo'shimcha legirlashning ta'siri natijalari keltirilgan. Yechilmagan vazifalar aniqlanib, ular asosida mazkur ishning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot obyektlari² va tajriba usullari”** nomli II bobida tadqiqot ob'ektlarini tanlash aktivator Ce ioni va uning 0.25 at.% konsentratsiyali, LSO:Ce,Ca da 0.1, 0.2, 0.3 va 0.4 at% konsentratsiyali Ca^{2+} ionlari bilan qo'shimcha legirlangan monokristallar, shuningdek, LSO:Ce sintillyator kristallarini olish usuli asoslangan. Kiruvchi radiatsiyaning kristallning optik xususiyatlariga ta'sirini o'rganish uchun namuna harorati 310 K da 70 dan $5 \cdot 10^7$ Gy gacha bo'lgan katta dozalar oralig'ida, ikkita 0.80 va 1.1 Gr/s quvvatlarda 1.17 va 1.33 MeV energiyali ^{60}Co izotop manbaining gamma-kvantlari bilan nurlantirildi. Quvvati 10 MWt bo'lgan WWR-SM reaktorida aralash neytron-gamma oqimlari bilan nurlantirish uchun na'munalar alyuminiy folga bilan o'raldi va devor qalinligi 1 mm bo'lgan kadmiy stakanga joylashtirildi, u issiqlik va rezonans neytronlarini ajratib oladi va faqat energiyasi > 0.1 MeV bo'lgan tez neytronlarni o'tkazadi, oqim $3 \cdot 10^{13}$ cm^{-2} (gamma-komponent 37 Gy/s). Na'munalar solingan to'rtta konteyner 10^{15} (Gy), 10^{16} , $5 \cdot 10^{16}$ va 10^{17} cm^{-2} tez neytron flyuyenslari bilan nurlantirildi. Tadqiqot vazifalarini bajarish va tadqiqot maqsadiga erishish uchun zarur bo'lgan gamma-dozasi va tez neytron flyuyenslarini, shuningdek optik tajriba usullarni tanlashga asoslangan.


Optik yutilish, lyuminessensiya va termolyuminessensiya spektrlarining barcha o'lchovlarida tajriba xatoligi (1÷3) foizdan oshmadi. Namunalar bo'yicha statistik xatolik esa 5 foizni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning **“Gamma kvantlar bilan nurlantirishdan oldin va keyin aktivlashtirilgan $\text{Lu}_2\text{SiO}_5:\text{Ce}$ kristallarining spektral xarakteristikalari”** nomli III bobida LSO:Ce ssintillyatsion monokristallarining optik xossalari ^{60}Co gamma kvantlarining ta'siri bo'yicha tajriba natijalari keltirilgan.

Nurlanmagan LSO:Ce namunalarining optik yutilish (OYu) spektrlarida spektrning ultrabinafsha (UB)-sohasida 190 va 210 nm va (220÷250) nm li strukturatsiz keng polosalari kuzatiladi (1a-rasmga qarang, 1-egri chiziq), shuningdek Ce^{3+} -Ce1-ionlarining $4f \rightarrow 5d$ elektron o'tishlari bilan bog'liq 260, 295 ma'lum bo'lgan polosalar (yettita kislorod ionlari bilan koordinatsiyalangan) va 360 nm li markazlar (1b-rasmga qarang, 1-egri chiziq) kuzatiladi. Nurlantirilmagan LSO:Ce kristali OYu spektri boshqa tadqiqotchilar tomonidan ilgari e'lon qilingan spektrlarga o'xshash bo'lib, ular Ce^{3+} ionlaridagi $4f \rightarrow 5d$ o'tishlarga 200, 220, 264, 295 va 356 nm uzunlikdagi OYu chiziqlarini beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, Y_2SiO_5 (YSO) ittriy ortosilikatining nurlantirilmagan nominal toza namunasining OYu spektrlarida ham 195 nm OYu va (200÷250) nm kuchsizroq polosa kuzatiladi (6-egri chiziq), bu ham ikkita ekvivalent bo'lmagan metall tugunlari bo'lgan C2/c monoklin tuzilishga

² Namunalar Scintillation Materials Research Center, Department of Materials Science and Engineering, University of Tennessee, Knoxville, USA (A.F.Rakov va C.L.Melcher) hamkasblari tomonidan taqdim etilgan.

ega bo‘lgan LSO kristalida mavjud (1a-rasmga qarang, 1-egri chiziq). Bu (190÷250) nm sohadagi OYu sohalarning Ce aktivator ionlari mavjudligidan va ularning argonning qaytaruvchi atmosferasida Choxralski usulida o‘stirishda hosil bo‘ladigan radiatsiyadan oldingi (yoki o‘shish) nuqsonlari bilan bog‘liqligidan dalolat beradi.




1-rasm. Aktivlashtirilgan LSO:Ce kristalining a) UB va b) ko‘rinadigan sohadagi yutilish spektrlari: dastlabki (1-egri chiziq) va 10^2 (2), 10^4 (3), $5 \cdot 10^5$ (4) va $5 \cdot 10^7$ Gr (5) dozalari bilan nurlantirilgandan keyin va (6) taqqoslash uchun dastlabki YSO kristali

10^2 va 10^4 Gr dozadagi ^{60}Co gamma-nurlanishdan so‘ng OYu (200÷250) nm spektral sohaga nisbatan 195 nm polosaning kuchliroq kamayishi kuzatiladi (1-a rasmga qarang, 2 va 3-egri chiziqlar). $5 \cdot 10^5$ va $5 \cdot 10^7$ Gr dozalardan keyin bu chiziq kattalashadi va to‘yinishga chiqadi (1a-rasmga qarang, 4 va 5-egri chiziqlar). Bundan tashqari, $5 \cdot 10^5$ Gr dozada 240 nm chiziq aniqroq ajralib turadi, $5 \cdot 10^7$ Gr dan keyin esa OYu 240, 260 va 290 nm chiziqlari tezda kattalashadi (1a-rasmga qarang, 4 va 5-egri chiziqlar). Bunda Ce^{3+} ionining ($4f \rightarrow 5d$) o‘tishiga bog‘liq bo‘lgan 360 nm sohasida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmaydi (1-b rasmga qarang, 1-5 egri chiziqlar).

OYu spektrlarini Gaussianlarga ajratishda ularning soni va yutilish sohasi 2-a rasmda aniqlandi, bu esa 70 dan $5 \cdot 10^7$ Gr gacha bo‘lgan intervalda gamma-do‘zadan keyin Gausslarga mos ranglanish markazlarining o‘zgarish kinetikasini aniq tahlil qilish uchun zarur edi. 2a-rasmda maksimumlari 4.22 eV (293 nm), 4.7 eV (263 nm), 5.18 eV (238 nm), 5.8 eV (213 nm), 6.12 eV (202 nm) va 6.4 eV (193 nm) va FWHM (yarim balandlikdagi to‘liq kenglik) mos ravishda 0.51, 0.52, 0.64, 0.65, 0.5 va 0.4 eV bo‘lgan oltita sohasi (G1÷G6) aniqlanadi. Shu asosda ularning to‘planish kinetikasini aniqlash uchun 4.22 eV (293 nm), 4.7 eV (263 nm), 5.18 eV (238 nm), 5.8 eV (213 nm), 6.12 eV (202 nm) va 6.4 eV (193 nm) OYu polosa maksimumlarining dozaviy bog‘lanishlari keltirilgan (2b-rasmga qarang).

Ko‘rinib turibdiki, gamma dozaning 10^4 Gr gacha oshishi bilan OYu 238, 213 va 202 (3-5-egri chiziqlar) ga nisbatan 193 nm (6-egri chiziq) intensivligining kuchli pasayishi kuzatiladi. Bunda 293 va 263 nm sohalarning intensivligi (1,2-egri chiziqlar) $5 \cdot 10^5$ Gr dozaga qadar sezilarli darajada o‘zgarmaydi. Doza yanada 10^4 dan $5 \cdot 10^5$ Gr gacha oshirilganda 193 nm sohasi $5 \cdot 10^6$ Gr dan $5 \cdot 10^7$ Gr gacha oraliqda to‘yinishgacha o‘sadi (6-egri chiziq). Shuningdek, 202, 213 nm va 238 nm polosalar intensivligining $5 \cdot 10^5$ Gy dozadan $5 \cdot 10^7$ Gy gacha o‘shishi kuzatildi. 10^6 Gr dan

yuqori dozalarda 293 va 263 nm sohalar intensivligi ortganligi qayd etildi (1,2-egri chiziqlar).




2-rasm. a) LSO:Ce kristalining $5 \cdot 10^7$ Gr dozada nurlantirilgandagi yutilish spektri (1-egri chiziq), uning gaussiyanlari (G1-293, G2-263, 193–G6, G3-238, G4-213, G5-202 nm) va ularning yig‘indisi (2-egri chiziq); b) gaussiyanlarning dozaga bog‘liqligi: 293 nm, 263 nm, 238 nm, 213 nm, 202 nm va 193 nm (mos ravishda 1-6 egri chiziqlar)

Kislorod vakansiyalari $O^{2-}-V_O$ zaryad tashish o‘tishiga kiritilishi mumkin, uning energiyasi F^- (ikkita elektronni qamrab olgan kislorod vakansiyasi) va F^+ (bitta elektronni qamrab olgan kislorod vakansiyasi) markazlarning optik o‘tish energiyalaridan katta bo‘lishi kerak. Shuningdek, Rentgen va neytron-strukturaviy tahlillar (Gustafsson T., at.al., Acta Crystallographica Sec. C Crys. Struct. Communic. 2001. 57 (6), 668), dastlabki LSO:Ce namunalarida kuzatiladigan OYu 193 nm chizig‘i (2a-rasmga qarang) Si bilan bog‘lanmagan $Lu1-V_{O5}$ nuqsonlaridagi O_5 tugunlaridagi kislorod vakansiyalari bilan, 5.8 eV (213 nm) chizig‘i esa $Si-V_{O4}-Lu1$ kompleks nuqsonlarining O_4 tugunlaridagi vakansiyalari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 238 nm polosa (1a-rasmga qarang, 4 va 5-egri chiziqlar) F^- markaz bilan bog‘langan va, ehtimol, $Lu1-O_2-Si$ ning eng uzun aloqasi (0.26163 nm) buzilib, V_{O2} zaryadlangan bo‘sh joy - $Lu1-F-Si$ kompleks markazi hosil bo‘lishi mumkin. Ce^{3+} ionlarining 263 va 293 nm yutilish chiziqlari 10^5 Gr dozalar gammasidan keyin mos ravishda Ce^{4+} - va F^+ -ranglanish markazlarining boshqa chiziqlariga qo‘shiladi deb taxmin qilamiz. Bunda F^+ -markazning hosil bo‘lishi $Lu-V_{O1}-Si$ ($Lu-F^+-Si$) yoki $Ce-V_{O1}-Si$ ($Ce-F^+-Si$ OYu 293 nm) markazlaridagi kislorod bo‘shlig‘ida bo‘lishi mumkin. Keyinchalik bu rang markazlari sodda qilib Ce^{3+}/Ce^{4+} (263 nm) va Ce^{3+}/F^+ - markazlar (293 nm) deb belgilanadi.

$Lu1-V_{O5}$ (193 nm), $Si-V_{O4}-Lu1$ (213 nm), $Lu1-F-Si$ (238 nm) kislorod vakansiyalari, Ce^{3+}/Ce^{4+} (263 nm) va Ce^{3+}/F^+ (293 nm) aktivator markazlari bilan bog‘liq bo‘lgan rang markazlarining yutilish intensivligining o‘lchangan dozalari (2b-rasmga qarang) gamma-nurlanish dozasi $5 \cdot 10^4$ Gr bo‘lgunga qadar mavjud o‘shish nuqsonlarining zaryadlanishi sodir bo‘lishini ko‘rsatadi. $Si-V_{O4}-Lu1$ (213 nm), $Lu1-F-Si$ (238 nm) va Ce^{3+}/F^+ (293 nm) markazlar konsentratsiyasining $\geq 10^5$ Gr gamma-dozalarda ortishi ularning qo‘shimcha generatsiyalanishidan dalolat beradi. $5 \cdot 10^6$ Gr dozada nurlantirilgandan keyin sariq rang 422 nm gaussianga bog‘liq.

Ushbu bo'yash markazlari rekombinatsiya jarayonida zaryad tashuvchilarni tutib olishda lyuminessent Ce^{3+} -markazlariga raqobatchi bo'lishi mumkin. Bunday raqobatni hisobga olish, masalan, 2035 yilgacha rejalashtirilgan yuqori energiyali fizika bo'yicha tajribalarda muhimdir, bu yerda yuqori yorqinlikka ega bo'lgan LHC (HL-LHC) kristallari ionlashtiruvchi nurlanishning 100 Mrad (10^6 Gr) dan yuqori yutilgan dozalari uchun optik va lyuminessent xarakteristikalarini saqlab qolishi kerak. Shu munosabat bilan, hosil bo'lgan rang markazlarining LSO:Ce kristalidagi Ce^{3+} aktivator nurlanishiga ta'sirini aniqlash uchun biz 310 K da gamma-lyuminessensiya (GL) spektrlarini qayd etdik (3a-rasmga qarang).



3-rasm. a) LSO:Ce kristallarining ^{60}Co -indutsirlangan lyuminessensiya spektri: a) boshlang'ich (1-egri chiziq), uning Gauss tashkil etuvchilari (G1-400, G2-420, G3-460 nm) va ularning yig'indisi (2-egri chiziq); b) nurlantirilgan namunalar - 400 (1), 420 (2) va 460 nm (3) sohalarning dozaga bog'liqligi

3a-rasmdan ko'rinib turibdiki, γ -kvantlar ta'sirining dastlabki 3 daqiqasida LSO:Ce namunasining GL spektrida 2 eV dan 3.5 eV gacha (620 dan 354 nm gacha) energiya sohasida keng chiziq kuzatiladi (1-egri chiziq). So'ngra ushbu namunadagi GL spektrlari 10^4 Gr dozaga qadar (6÷10) min vaqt oralig'ida qayd etildi. So'ngra GL spektrlari mos ravishda $5 \cdot 10^4$ va 10^5 , 10^6 va $5 \cdot 10^7$ Gr dozalar bilan nurlantirilgan uchta namunada qayd etildi. Lyuminessensiya polosalarining soni va ularning to'liq uzunliklarini hisobga olgan holda, olingan GL spektrlari har bir gamma nurlanish dozasi keyin gaussianalarga ajratilgan. 3a-rasmdagi gaussianni komponentlarga ajratishda Ce1-markazlari (yettita kislorod ionlari bilan koordinatsiyalangan) bilan bog'langan 3.1 eV (399 nm) (gaussianni G1) va 2.95 eV (420 nm) (G2) maksimumlari bilan ma'lum bo'lgan yorug'lik chiziqlari aniq ko'rinadi; 2.7 eV (460 nm) (Gaussian G3) - Ce2-markazlari bilan (oltita kislorod ionlari bilan muvofiqlashtirilgan). Har bir dozadan 70 dan $5 \cdot 10^7$ Gr gacha nurlanishdan keyin olingan GL spektrlari gaussianning tarkibiy qismlariga ajratilgandan so'ng, GL 400, 420 va 460 nm polosalari komponentlarining intensivligini o'zgarish kinetikasi olindi, ular 3b-rasmlarda, 1-3-egri chiziqalarda keltirilgan.

Qizig'i shundaki, nurlanish vaqti $5 \cdot 10^4$ Gr dozasigacha ortishi bilan GL 400, 420 va 460 nm polosalarining intensivligi o'zgarmaydi, doza $\geq 10^5$ Gy dan keyin esa Ce1 va Ce2 nurlanish markazlari konsentratsiyasining pasayishi tufayli ularning kamayishi boshlanadi. Shu bilan birga, $\lambda \leq 330$ nm da OYu intensivligining o'zgarish

kinetikasidan $> 5 \cdot 10^5$ Gr dozadan keyin matritsaviy strukturada va Ce^{3+}/Ce^{4+} (263 nm) va Ce^{3+}/F^+ (293 nm) aktivatorlari atrofida nuqsonlar bilan bog‘liq bo‘lgan rang markazlari konsentratsiyasining oshishi sodir bo‘ladi: $Lu1-V_{O5}$ (193 nm), $Si-V_{O4}$ (213 nm), $Lu1-F-Si$ (238 nm) (2b -rasmga qarang). Demak, gamma ta‘sirida Ce^{3+} ionlari harakatchan kovaklarning valent zonasidan tortib olib chuqur tuzoqlarga aylanadi deb taxmin qilish mumkin:




Qo‘zg‘aluvchan elektron o‘tkazuvchanlik zonasidan (Ce^{3+})* ionining 5d uyg‘ongan holatidan, asosiy 4f -holatga o‘tganda Ce1 yoki Ce2-markazlarga mos energiya bilan lyuminessensiya chiqaradi.



Shunday qilib, $\geq 10^5$ Gy dozadan keyin Ce^{3+} (Ce1 va Ce2 markazlar) aktivator nurlanishi GL chiqishining kamayishi (3b-rasmga qarang, 1–3-egri chiziqlar), aftidan, termallashtirilgan elektronlarni qamrab oluvchi $Lu1-F-Si$ (238 nm), Ce^{3+}/F^+ (293 nm) va $Ce^{4+}+V_O$ (430 nm) qo‘shimcha vakansiya markazlari konsentratsiyasining ortishi bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan, ushbu gamma-nurlangan ranglanish markazlari va ma‘lum termolyuminessensiya egri chiziqlarining (TYo) cho‘qqilari o‘rtasidagi bog‘liqlikni (300÷600) K harorat oralig‘ida aniqlash qiziqarli edi (Dorenbos P. va boshqalar, Jour. Phys. Condens. Matter. (1994). 6, 4167., Rakov A.F., Salixbayev U.S., Islamov A.X. va boshqalar, Jour. Lumin. (2010). 130, 2004).

4-a rasmda 310 K haroratda bir xil $2 \cdot 10^2$ Gr dozada nurlantirilgan LSO:Ce ning (300÷600) K harorat oralig‘ida, 3 daqiqa hamda 1, 3 va 10 soatdan so‘ng qayd etilgan integral egri chiziqlari ko‘rsatilgan (1-4 egri chiziqlar). Yuqorida ko‘rsatilgan saqlash vaqtlaridan oldin va keyin o‘lchangan OYu spektrlari 4b-rasmda, 1-4 egri chiziqlarda tasvirlangan. TYo egri chiziqlari odatda beshta cho‘qqigga ega: 335, 390, 440, 475 va 540 K (4 a-rasmga qarang).



4-rasm. a) LSO:Ce kristalining $2 \cdot 10^2$ Gr dozada nurlantirilgandan keyin 3 min (1) 1 (2), 3 (3) va 10 soat (4) dan keyin o‘lchangan termik nurlanishi egri chiziqlari; b) UB-sohada yutilish spektrlari: $2 \cdot 10^2$ Gr dozada nurlantirilgandan keyin dastlabki (1-egri chiziq) va 1 soat (3) va 10 soat (4) dan keyin o‘lchangan

Ularni OYu spektrlari bilan taqqoslashdan (4b-rasmga qarang) quyidagilar aniqlandi: i) nurlantirilgandan keyin (3 min) ushlab turilgandan so'ng o'lchangan TYoning eng intensiv 335 K pikining amplitudasi (1-egri chiziq), 300 K da ushlab turish vaqtining oshishi bilan 1 soat (2-egri chiziq) va 3 soat (3-egri chiziq) sezilarli darajada kamayadi, 10 soatdan keyin esa bu TYo piki deyarli kuzatilmaydi (4a-rasmga qarang, 4-egri chiziq). Ushbu pikdan farqli o'laroq, yuqori haroratli TYo 390, 440, 475 va 540 K piklari ushlab turish vaqtiga bog'liq emas (4a-rasmga qarang, 1-4-egri chiziqlar), ya'ni bu tuzoqlar 300 K da barqaror; ii) OYu spektrida $2 \cdot 10^2$ Gr dozadan keyin 193 nm chiziq koeffitsiyenti dastlabki na'muna (1-egri chiziq) (4b-rasmga qarang) ga nisbatan sezilarli darajada kamayadi (2-egri chiziq). 300 K da 3 soat ushlab turilgandan so'ng (3-egri chiziq) uning ortishi sodir bo'ladi, 10 soat ushlab turilganda esa uning yutilish koeffitsiyenti dastlabki nurlanmagan namuna darajasiga yetadi (4-egri chiziq) (4b-rasmga qarang), chunki tegishli tuzoq 335 K da bo'shaydi. Bunda zaryadlangan nuqson elektronlarning ozod bo'lish vaqt va keyinchalik Ce^{4+} teshikli markaz bilan rekombinatsiya bo'lishi bilan zaryadlanmagan holatga o'tadi, ya'ni yorug'likdan keyingi sekin jarayonda (fosforessensiya).

Bu jarayon markaziy Ce^{3+} yoki Lu^{3+} ionlari yaqinida joylashgan elektron tutqichi V_{O5} ning zaryadlanmagan holatidagi neytral $Lu1-V_{O5}$ -markazlari konsentratsiyasining ortishiga olib keladi. Shuning uchun, bu ($5 \cdot 10^5 - 5 \cdot 10^7$)Gr doza oralig'ida neytral $Lu1-V_{O5}$ -markazlari konsentratsiyasining (193 nm OYu polosasi) oshishini tushuntiradi (2b-rasmga qarang, 6-egri chiziq), chunki OYu spektrlarining o'lchovlari har bir nurlanishdan bir hafta o'tgach o'tkazilgan. Bu, shuningdek, neytral $Lu1-V_{O5}$ -markazlarining tiklanishi bilan bog'liq bo'lib qoldiq nurlanish paydo bo'lish mexanizmini ham tushuntiradi.


Yadrolarga ta'sir qiluvchi gamma-nurlanishdan farqli o'laroq, tez neytronlar va protonlar Lu_2SiO_5 kristallidagi elastik to'qnashuvlar natijasida kislorod atomlarini kislorod panjarasining anion tugunlaridan asosan urib chiqaradi, bu esa Frenkel nuqson juftlarining (tuzilishning xususiy nuqsonlari) shakllanishiga olib keladi. Bu nuqsonlar elektronlarni tutib olgandan so'ng F -markaz va F^+ -markaz tipidagi rang markazlariga aylanadi. Og'irroq Lu yadrolari kamroq siljiydi. Neytronlar va gamma-nurlanishning optik shaffoflik va aktivator nurlanishiga ta'sirini o'rganish yuqori energiyali eksperimental fizika uchun muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning **“ $Lu_2SiO_5:Ce$ ssintillyatsion monokristallarida neytronlar bilan hosil qilingan ranglanish va lyuminessensiya markazlari va ularning aktivator lyuminessensiyaga ta'siri”** deb nomlangan IV bobida tez neytronlar bilan nurlan-tirishning $LSO:Ce$ optik xarakteristikalariga ta'sirini o'rganish natijalari keltirilgan.

OYu spektrlarida $LSO:Ce$ ga 10^{15} cm^{-2} tez neytronlar flyuyensi minimal ta'sir etgandan so'ng (210÷310) nm da UB yutilish intensivligi ortadi. Neytronlar flyuensi 10^{17} cm^{-2} gacha ortganda bu yutilish intensivligi tezroq ortadi (5a-rasmga qarang, 3, 4, 5-egri chiziqlar). Bunda γ - dozasi $5 \cdot 10^7$ Gr bo'lgan (^{60}Co) bilan nurlantirilgandan so'ng yutilish intensivligi darajasi taxminan 10^{15} cm^{-2} neytron flyuyensi bilan mos keladi (5a-rasmga qarang, 2, 6-egri chiziqlar). Shuni ta'kidlash kerakki, YSO va LSO monokristallari ikkita ekvivalent bo'lmagan metall tugunlari bilan bir xil C2/c

monoklin tuzilishga ega. Nominl sof YSO kristalining OYu spektrlarida 10^{17} cm^{-2} flyuyensli neytronlar bilan nurlantirilgandan so'ng UB sohada maksimumi 300 nm bo'lgan polosalar va (210÷275) nm va (320÷600) nm oralig'idagi keng polosalar aniqroq kuzatiladi (5a,b-rasmga qarang, 7-egri chiziq).

OYu spektrining ko'rinadigan sohasida $\geq 10^{16} \text{ cm}^{-2}$ flyuyenslardan so'ng ham LSO:Ce, ham nominal sof YSO kristallarida 380 dan 600 nm gacha bo'lgan strukturasisiz keng yutilish intensivligining oshishi kuzatiladi (5b-rasmga qarang, 3, 4, 5, 7-egri chiziqlar), ulardan (10^{17} cm^{-2}) 5-egri chiziq gaussiana komponentlariga ajratildi va 5b-rasmning (c) qo'shimchasida ko'rsatilgan. 393 (egri chiziq 2), 434 nm (3) va 538 nm (4) dagi maksimumlarga ega uchta soha ajratiladi. Bu shuningdek, LSO:Ce kristallarida 420 nm da sintillyatsion lyuminessensiyani qamrab oluvchi $>375 \text{ nm}$ sohada yutilish intensivligining o'zgarishini aniqlash uchun




5-rasm. LSO:Ce yutilish spektrlari: a) UB va b) ko'rinadigan soha: boshlang'ich (1-egri chiziq) va neytronlar flyuyenslari bilan 10^{15} (2), 10^{16} (3), $5 \cdot 10^{16}$ (4) va 10^{17} cm^{-2} (5); $5 \cdot 10^7 \text{ Gr}$ (6) dozada gamma nurlantirishdan keyin va 10^{17} cm^{-2} (7) flyuyens bilan nurlantirilgan nominal toza YSO kristali. c) neytronlar flyuyensidan keyin 10^{17} cm^{-2} LSO:Ce (1), uning gaussianalari (393, 434 va 538 nm) va ularning yig'indisi (5)

10^{15} dan 10^{17} cm^{-2} gacha bo'lgan oraliqdagi boshqa flyuyenslardan keyin ham amalga oshirildi (5b-rasmga qarang, 3,4,5-egri chiziqlar). Bu natijalar 238 nm chiziq F markaz bilan, 261 nm chiziq $\text{Ce}^{3+}/\text{Ce}^{4+}$ bilan bog'langan, 291 nm chiziq esa Ce^{3+} ionining ($4f \rightarrow 5d$) o'tishlari bilan bog'langan OYu chiziq yuqorida (Ce^{3+}/F^+) deb belgilangan F^+ -markaz chizig'iga qo'shiladi, degan taxminlarimizni tasdiqlaydi.

LSO:Ce da ko'p sonli nuqsonlar $5 \cdot 10^7 \text{ Gr}$ dozada γ -kvantlarning o'zaro ta'siriga nisbatan (5a-rasmga qarang, 3,4,5-egri chiziqlar) $\geq 10^{16} \text{ cm}^{-2}$ flyuyensli neytron oldi nurlanishida hosil bo'ladi (5a-rasmga qarang, 6-egri chiziq). Neytronlar bilan nurlantirilganda hosil bo'ladigan yuqori konsentratsiyali F va F^+ -markazlar panjarada diffuziya jarayonida agregatlar hosil qilishi mumkin, ya'ni $F+F^+ \rightarrow F_2^+$. Bundan tashqari, LSO:Ce kristalidagi Ce^{3+} dan Ce^{4+} ionlariga oksidlanishiga kislorod vakansiyalari va oraliq kislorod atomlari kabi muhim miqdordagi struktura omillari hissa qo'shishi mumkin. Keyinchalik xarakterli chiziqlari OYu 434 ($\text{Ce}^{4+}+V_O$) va 538 nm (F_2^+ agregatlari) bo'lgan rang markazlari ko'rib chiqildi. Ushbu kiritilgan

nuqsonlar ^{60}Co gamma-kvantlari bilan qo'zg'atilganda rekombinatsiya jarayonida elektronlarni ushlab olishda Ce^{4+} ionlari bilan raqobatlashadi. Shu munosabat bilan 10^{15} , 10^{16} , $5 \cdot 10^{16}$ va 10^{17} cm^{-2} flyuyensli neytronlar bilan oldindan nurlantirilgan kristallarning, shuningdek, faqat $5 \cdot 10^7$ Gr gamma dozadan keyin nurlantirilgan kristallarning GL spektrlari qayd etildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, 10^{15} cm^{-2} flyuyens va $5 \cdot 10^7$ Gr gamma-doza bilan nurlantirilgan neytronlarni solishtirganda, 400 nm Ce1-markazning GL polosasi intensivligi mos ravishda taxminan (13÷20)% ga kamaydi. Neytronlar flyuyensining $\geq 10^{16} \text{ sm}^{-2}$ keyingi o'sishida ularning kamayishi ancha katta bo'ldi, masalan, 10^{17} sm^{-2} flyuyensda 70% gacha. Shu bilan birga, UB va spektrning ko'rinadigan sohasida OYu koeffitsiyentlarining o'zgarishi nuqsonlar bilan bog'liq bo'lgan ranglanish markazlari konsentratsiyasining oshishini ko'rsatadi: 238 nm - F -markaz, 261 nm $\text{Ce}^{3+}/\text{Ce}^{4+}$ va 291 nm Ce^{3+}/F^+ , shuningdek 430 nm $\text{Ce}^{4+}+V_{\text{O}}$ va 538 nm - F_2^+ (4.1a,b-rasmga qarang). Shunday qilib, $\geq 10^{16} \text{ cm}^{-2}$ flyuensdan keyin Ce^{3+} aktivatorning GL chiqishi sezilarli darajada pasayishi quyidagicha izohlanadi: $\geq 10^{16} \text{ sm}^{-2}$ flyuensning oshishi bilan F (238 nm) va Ce^{3+}/F^+ (291 nm) raqobatlashuvchi qo'shimcha vakansiya markazlari konsentratsiyasining oshishi (5a-rasmga qarang, 2–6-egri chiziqlar), ular termolizlangan elektronlarni qamrab oladi, Ce^{3+} ionlarining bir qismi LSO:Ce dagi Ce^{4+} holatiga o'tadi; Shuningdek, Ce^{3+} nurlanishining 393 nm va 430 nm yutilish sohasidagi ranglanish markazlari tomonidan qisman reabsorbsiya jarayoni ham istisno etilmaydi, bu 10^{16} cm^{-2} flyuyensda kuzatiladi va 10^{17} cm^{-2} neytron flyuyensgacha o'sadi (5b-rasmga qarang, 3-5 egri chiziqlarga qarang).




6-rasm. LSO:Ce namunasining yutilish spektrlari: a) ultrabinafsha va b) ko'rinadigan sohada: dastlabki holat (1), $5 \cdot 10^{16} \text{ cm}^{-2}$ neytron oqimi ta'siridan keyin (2), TYo o'lchovi paytida 605 K gacha qizdirilgandan so'ng (3), $4 \cdot 10^3$ Gr dozadagi gamma nurlanishdan so'ng (4) va yana KTVni takroran o'lchashda 605 K gacha qizdirilgandan so'ng (5)

Shu munosabat bilan neytron ta'sirida hosil qilingan ranglanish markazlari, TYo (300÷600) K integral cho'qqilari va aktivator lyuminessensiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash kerak. GL chiqishi maksimal kamaygan $5 \cdot 10^{16} \text{ cm}^{-2}$ neytronlarning flyuyensi bilan nurlantirilgan namunaning LSO:Ce OYu spektrlari ketma-ket o'lchandi, so'ngra 605 K gacha qizdirilgandan so'ng (tutqichlardan zaryad

tashuvchilarni bo'shatish). 7a,b-rasmda dastlabki LSO:Ce namunasining UB (a) va ko'rinadigan soha (b) OYu spektrlari (1-egri chiziq), $5 \cdot 10^{16} \text{ cm}^{-2}$ neytronlar flyuyensi bilan nurlantirilgandan so'ng (2-egri chiziq), 600 K gacha qizdirilgandan so'ng (TYoni olib tashlash va tuzoqlarni bo'shatish uchun) (3-egri chiziq), qo'shimcha $4 \cdot 10^3 \text{ Gr}$ dozali kichik gamma nurlantirilgandan so'ng (4-egri chiziq) tuzoqlarni to'ldirish uchun, shuningdek, 605 K gacha qizdirilgandan so'ng (bo'shatish) TYoni o'lchashda (5-egri chiziq) keltirilgan.

$5 \cdot 10^{16} \text{ cm}^{-2}$ neytronlar flyuyensi bilan nurlantirilgan LSO:Ce namunasining 605 K gacha qizdirilgandan so'ng uning OYu spektrida (7b-rasmga qarang, 3-egri chiziq) 390 dan 600 nm gacha bo'lgan spektral sohada joylashgan 393, 430 va 538 nm OYu polosalarining intensivligi kamayishi kuzatildi (5b-rasmga qarang). Shu bilan birga, $5 \cdot 10^{16} \text{ cm}^{-2}$ neytronlar oqimi bilan nurlantirilgan LSO:Ce integral TYo egri chizig'ida 390, 440, 475 va 540 K TYo cho'qqilari kuzatiladi (7a-rasmga qarang, 2-egri chiziq). Namunani keyinchalik $4 \cdot 10^3 \text{ Gr}$ dozada γ -kvantlar bilan nurlantirilganda qizdirishdan oldingi (2-egri chiziq) va keyingi (3-egri chiziq) spektrlarga nisbatan 238 nm (6a-rasmga qarang, 4-egri chiziq), shuningdek 430 va 538 nm (6b-rasmga qarang, 4-egri chiziq) sohalarda OYu polosalari intensivligining kuchli ortishi kuzatiladi.



